

XITOY TILIDAGI UNLI (元音) VA UNDOSH (辅音) TOVUSHLAR TASNIFI

Tugalov Husan¹, Salimova Sohiba²

¹ Samarqand Davlat Chet tillari Instituti o'qituvchisi

² Yaqin sharq tillari fakulteti Xitoy tili 1-kurs magistranti

ARTICLE INFO.

Tayanch so'z va iboralar:

Xitoy tili, tilshunoslik, fonetika, unli va undoshlar, talaffuz jarayoni.

Annotation

Ushbu maqolada hozirgi xitoy tili Putonghua (普通话) fonetikasi, fonologiya, tovushlar tasnifi, ahamiyati, talaffuzning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2022 LWAB.

Kirish: Pekin dialektika asosidagi shakllangan Xitoy adabiy tilida tovushlarning yozuvda aks ettirilishi va ierogrif holiga o'tishi yoki aksincha holatlar IPA tomonidan taqdim etilgan diagrammalarga moslashtirilib, mukammallashtirilmoqda. Fonetika nutq qonunlarini o'rganuvchi fandir. Xitoy tilida hozirgi zamon xitoy adabiy tilining tayanch dialekti qilib, fonetik va morfologik jihatdan Pekin shevasi olingan. Pekin shevasi asosida davlat tili darajasiga ko'tarilgan, Han millatining tili ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat ko'rsata olayotgan, barcha xitoy sheva va lahjalari uchun xizmat qiladigan, to'liq o'rmini mukammal bosa oladigan, yagona, sayqallangan aloqa vositasi sifatida shakllandi.

Xitoy tili fonetikasi ko'p qirrali hamda mukammal o'rganishni talab qiladigan, hozirgacha bahsli holatlar mavjud bo'lган tilsim sifatida qaraladi, dunyo miqyosida hali ham xitoy tili fonetikasi bo'yicha ko'plab yangi ilmiy ishlar olib borilmoqda. Xitoy tili fonetikasi tildagi tovushlar tizimi, ularning hosil bo'lish o'rni, usuli, miqdoriy xossasi, fonologik ahamiyati, tovush o'zgarishlari, ohang tempini, ovoz tembrini tekshiradi. Fonetika urg'u va uning tarkibi, o'rni, vazifasi, intonatsiyasi, pauza, bo'g'in va uning turlarini, tuzilishini ham o'rganadi. So'zlar, iboralar, gaplar – umuman, tovushlar vositasida shakllanadi, zero tovush tilning modiy qobig'idir. Har qanday fonetik holat va fonetik birlik fonologik ahamiyatga ega bo'lгandagina ijtimoiy vazifasini bajaradi va mustaqil fonema bo'la oladi.

Asosiy qism: Tovush to'lqinlarning chastotasi bilan bog'liq, chastota qanchalik baland bo'lsa, tovush shunchalik yuqori bo'ladi, chastota qanchalik past bo'lsa, ovoz shunchalik past bo'ladi. Odatda inson 16 赫兹 Hz (hertz – a unit for measuring the FREQUENSY of sound waves) 20 000 赫兹 Hz gacha bo'lган chastotali tovush to'lqinlarini idrok eta oladi.

Tovush intensivligi tovush to'lqining amplitudasi bilan bo'gliq. Amplitude katta bo'lsa, tovush kuchli bo'ladi. Aksincha amplitude kichik bo'lsa tovush kuchsiz bo'ladi. Tovush intensivligini hisoblash birligi 分贝 db -decibel (a unit for measuring how loud a sound is) deb ataladi. Tovush intensivligi va balandligi ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'ladi. Tovush intensivligi kuchayganda, balandlik ham ortadi, va aksincha bo'ladi. Ovoz uzunligi tovush to'lqining tebranish davomiyligini bildiradi, tovush davomiyligini hisoblash millisekunda –ms 毫秒 larda hisoblanadi. Mandarin xitoy tilida uzun va qisqa unlilar o'rtasida hech farq yo'q bo'lsada, tovush uzunligi linistik nuqtai nazardan tahlil qilish

hali ham muhimdir. Misol uchun mandarin tilidagi yumshoq bo'g'lnarning asosiy xususiyatlaridan biri – tovush uzunligi nisbatan qisqa, bu uzunroq tovush uzunligi bo'lgan bo'g'lnlar ko'pincha nutqda ta'kidlangan bo'g'lnlardir.

Ovoz sifati deb atalgan tembr (frans. timbre – tovush sifati, musiqiy tovushning xususiy belgsidir. Tembr tufayli bir balandlik va bir xil dinamikdagi tovushlarni farqlash mumkin.) tovush xususiyatlari va mohiyatlarni bildiradi. Nutq faqat bir chastotali sof ohang emas, balki bir qancha sof ohanglarni o'z ichiga olgan polifoniyadir. Uning ochida eng past tebranish chastotasi va eng katta amplitudasi asosiy to'lqin qolganlari garmonika deb ataladi. Tembrdag'i farq nafaqat asosiy to'lqingga balki turli xil garmonikalar soniga ham bog'liq. Nutq inson tomonidan ovoz a'zolarning tebranishi va sozlanishi orqali hosil qilinadi. Ovoz a'zolarining har bir qismi o'z vazifasini bajaradi va talaffuz ta'sirini bir-biri bilan muvofiqlashtiradi. Talaffuz paytida o'pka havoni chiqaradi va talaffuz qilish uchun tovush traxeya orqali halqumga boradi, shu bilan birga halqumdan lablargacha bo'lgan ovoz yo'li kengayib ifoda etish uchun rezonanslanadi. Rezonans bo'shlinqing o'zgarishi, asosan og'iz shakli, turli tembrlar hosil qiladi. Ovozning bu qismi ohanglar deb ataladi. Og'iz bo'shlig'idagi havoni yutuvchi organlarning harakati tufayli ko'tarilangan havo oqimining harakat qilishidan kelib chiqqan shovqin majud. Inson nutqi ushbu ohangllar va shovqinlardan asosan og'iz bo'shlig'ida to'plangan va faol artikulatsiya organlari tomonidan ishlab chiqariladi, nutqni shakllantirish murakkab jarayoni og'iz bo'shlig'ida shu tarzda hosil bo'ladi.

Til insoniyat jamiyatining noyob axborot ramzidir. Til jarayoni axborotni kodlash, uzatish, qabul qilish, qayta kodlash jarayonidir. Nutqni idrok etish va tan olish vocal til muloqotining muhim jarayonidir. Nutq idrok etish subektiv eshitish psixologik hodisani aks ettirishdir. Odamlarning nutqni farqlash qobiliyati talaffuz qobiliyatidan oldin bo'ladi, shuning uchun talaffuzning to'g'riliqi ko'pincha tovushlarni tinglash va farqlash aniqligiga bog'liq.

Bo'g'in: eshitish orqali farqlanadigan tovush tuzilishining asosiy birligi hisoblanadi. Umuman olganda xitoy ieroglifining talaffuzi xitoy tilida bo'g'in shaklida namoyon bo'ladi. Putonghua asosiy 400 ta atonal bo'g'in va 1300 dan ortiq ohangga ega. 新华字典 lug'atida 418 ta atonal bo'g'in mavjud. Qo'shimcha o'nlab bo'g'inlar ba'zi maxsus undosh bo'g'inlar, maxsus o'zgarishlarga ega modal zarralar va juda qo'pol bo'lgan ba'zi sheva bo'g'inlaridan iborat.

Fonema: nutqning eng kichik birligi. Tovush so'z va Grammatik ko'rsatgichlarni shakllantirar ekan, uning so'z ma'nolarini farqlashda xizmat qiladigan turi fonema deyiladi. Mandarin tilida umumiyligi 32 fonema, 10ta unli fonema, 22 ta undosh fonema mavjud. Fonema tilning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib, u fonetikani jismoniy fizologik birlik sifatida fonetik birliklarni jamlaydi.

Fonologiya: fonologik tushunchalar. Nutq tizimining qisqartmasi hisoblanadi.

Unli tovushlar (元音- a vowel) fonemaning bir turi, talaffuz paytida og'iz bo'shlig'ida havo oqimi to'siqla uchramaydi, ovoz baland va aniq bo'lib, unlilar barchasi musiqiy ohanglar hisoblanadi.

Monofonik tovush ya'ni oddiy unli tovush talaffuz jarayonida tovush sifati har doim bir xil bo'ladi. Unga umumiyligi sodda va maxsusun unlilar kiradi. Sodda unlilar til yuzasi unlilari deb ham ataladi, talaffuz paytida til yuzasidan hosil bo'ladi. Tilning balandligi og'iz bo'shlig'ining ochilishi hamda yopilishiga teskari proporsionaldir. Tilning joylashuvi unlilar uchun universal xarita – sxematik diagramma majvud buni quyidagi sxema orqali ko'rishimiz mumkin.

THE INTERNATIONAL PHONETIC ALPHABET (revised to 2005)


CONSONANTS (PULMONIC)

© 2005 IPA

	Bilabial	Labiodental	Dental	Alveolar	Postalveolar	Retroflex	Palatal	Velar	Uvular	Pharyngeal	Glottal
Plosive	p b			t d		t̪ d̪	c j	k g	q ɣ		?
Nasal	m	n̪		n		ɳ	ɲ	ŋ	N		
Trill	B			r					R		
Tap or Flap		v		f		t̚					
Fricative	ɸ β	f v	θ ð	s z	ʃ ʒ	ʂ ʐ	ç ɟ	x ɣ	χ ʁ	ħ ʕ	h ɦ
Lateral fricative			ɬ ɭ								
Approximant		v		r		ɻ	ɺ	ɻ	ɻ		
Lateral approximant				l		ɬ	ɺ	ɬ	ɶ		

Where symbols appear in pairs, the one to the right represents a voiced consonant. Shaded areas denote articulations judged impossible.

VOWELS



Where symbols appear in pairs, the one to the right represents a rounded vowel.

(tovush belgilari juft holatda kelsa, o'ng tarafda joylashgani tilning yumaloq harakatdagi holatida hosil bo'lgan unlini ifodalaydi)

To'rtburchak to'rta so'ngi nuqtani to'g'ri chiziqlar bilan bog'lash orqali hosil bo'ladi. To'rtburchakning gorizantal tekisligi tilning old va orqa qismini ko'rsatish uchun old, markaz va orqaga bo'linadi, vertical tekislik tilda tovushning balandligini uchun past, yarim past, balandlik va yarim balandlikka (og'iz bo'shlig'ining ochilishi va yopilishiga) bo'linadi. Vertical chiziqning chap tomoni yaxlitlanmagan undoshni, o'ng tomoni esa lab undoshni belgilaydi.

Metodlar: Mandarin nutqida kiritilgan o'ziga xos til harakati yoki tilni aylantirish harakati shakllangan bo'lib, bu shakllangan unli fonemalar deyiladi. Bularga

1. til oldi va til orqa unlilari
2. tilning aylanma harakati bilan hosil qilingan unli fonemalar
3. ikki yoki uch unli fonemadan tashkil topgan burunda hosil bo'luvchi unlilar
4. ikki yoki uch fonema unlidan tashkil topgan tovush guruhi
5. oddiy yoki qo'shma unlilar burun orqali hosil bo'lib, yakuni n va ng bilan tugagan fonemalar kiradi.

Undosh tovushlar (辅音- a consonant) talaffuz jarayonida to'siqqa uchraydi, nafas olish havo oqimi kuchli bo'ladi, ovoz a'zolarining havo oqimiga to'sqinlik qiladigan qismi tarang holda bo'lib, ovoz paychalarining tebranishiga uchraydi. Xitoy adabiy tilida 22 fonema undosh mavjud.

Talaffuz o'miga ko'ra (发音部位) 7ta

1. 双唇阻 – ikki lab orasi undoshlari
2. 唇齿阻 – lab –tish undoshlari
3. 舌尖前阻 – til oldi undoshlari
4. 舌尖中阻 – til o'rtta undoshlari
5. 舌尖后阻 – til orqa undoshlari
6. 舌面阻 – til yuzasi (yoni) undoshlari
7. 舌根阻 – chuqur til (ildizi) undoshlari

Talaffuz usuliga ko'ra (发音方法) 5 turga

1. 塞音 - portlovchi
2. 擦音 – sirg'aluvchi
3. 塞擦音 – portlovchi – sirg'aluvchi
4. 鼻音 – burun tovushlari
5. 边音 - til –tanglay tovushi (lateral sound – a consonant sound which is produced by placing a part of the tongue against the Palate so that air flows around it on both sides, for example [l] in lie), (如 lie - 词中[l]的发音) - undosh tovush tilning bir qismini tanglayga qaratib, uning atrofida havo ikki tonomdan oqishi natijasida hosil bo'ladi.

Erishilgan natijalar: Xitoycha sof talaffuzni o'rganish murakkab jarayon. Bu ko'p jihatdan xitoy tilining fonetik va fonologik xususiyatidan kelib chiqqan deb ayta olamiz. Til o'qituvchilar orasida ham xitoy fonetika va fonologiyasini chuqur o'rgangan va o'rgatayotgan ilmiy salohiyati yuqori tilshunoslar sanoqli. Lin Tao o'zining "Hanyu yuyin jiaocheng" (Cao 2006 .,5) nomli asarida - "Xitoy tilida fonetik tadqiqotlar tahlili yangicha samarali yondashuvlarni talab qiladi, o'quv dasturlarida talaffuzni o'rgatish tobora kamayib bormoqda, buning natijasida chet ellik talabalar xitoy tilida kuchli urg'u (strong accent) bilan so'zlashmoqda, shu sababli xitoy tili fonetikasini ikkinchi darajada o'qitishni keng qamrovli va tizimli tarzda yo'lga qo'yishimiz shart" deya ta'kidlagan.

Xulosa: Bugungi kunga kelib fonetika fani korifey(daho)lari fonetika fani har qanday til uchun tilshunoslikning eng asosiy, o'rganishni muntazam talab etadigan, zamon bilan hamnafas harakat qilishni taqozo qilgan ilm-fanning eng dolzarb yo'nalishi ekanligini etirof etishmoqda. O'zbek tilshunoslari tomonidan ham xitoy fonetikasi borasida ilmiy ishlar hajmi kamligi va lissoniy tarjimalarga murojaat qilinmayotganligi oldimizga katta nazariy, amaliy o'rganishni ko'ndalang qo'ymoqda.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. S.Hashimova S.Nosirova 现代汉语语法
2. S.Hashimova Xitoy tilida so'z yasalishi 汉语构词法
3. Hidoyatova Sh., Karimov A., Aminov E., Xitoy tili grammatikasi (fonetika va ieroglifik yozuv)

Xorijiy tildagi adabiyotlar:

1. Zhao Yuanren O'gzaki xitoy tili grammaticasi – 汉语口语语法
2. Lin Maocan, Yan Jingzhu, Sun Guohua . Pekin dialektikasining ikki belgili guruuhlarining normal urg'usi bo'yicha dastlabki tajribalar, dialektika. –北京话两字组正常重音的初步实验。方言。

3. Shi Feng, Wang Ping Pekin shevasi ohangining statistic tahlili-
声调对比法与北京话双音组的重音类型。
4. Yang Lu. Pekin lahjasida ikki bo'g'inli so'zlarning urg'usi bo'yicha tadqiqot -
北京话双音节词重音研究
5. Cao Wang. Hanyu yuyin jiaocheng – A course in Chinese phonetics
6. Kane D The Chinese language: Its history and current use
7. Cao Wang Xiandai hanyu yuyin dawen – Questions and answers about Chinese phonetics
8. Duanmu S. The phonology of Standard Chinese
9. Yip M. Tone
10. Xu S. Putonghua yuyin changshi – Basic facts about Standard Chinese phonetics
11. Lin Tao Hanyu yuyin jiaocheng – A course in Chinese phonetics